



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



**2024-YIL YANVAR-IYUN OYLARI  
BO'YICHA QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY  
IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI**




# YALPI ICHKI MAHSULOT TARKIBIDA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGINING O'RNI


2024-yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatimiz **yalpi ichki mahsuloti 567,4 trln so'mni**, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish **106,4 foizni** tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi **45,1 mlrd AQSh dollari** ekvivalentiga teng bo'ldi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **99 trln so'mni** yoki **7,9 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulotdagi qo'shilgan qiymati ulushi esa **18,2 foiz** darajada bo'ldi.



**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati, o'sish sur'ati, YAIMdagi ulushi**



## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI TARMOG'INING YAIM (YAQQ) TARKIBIDAGI ULUSHI

### O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YAIM (YAQQ) tarkibidagi ulushi, % da

<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>18,6</b>
Andijon	31,6
Buxoro	35,2
Jizzax	37,5
Qashqadaryo	34,2
Navoiy	9,4
Namangan	30,3
Samarqand	28,6
Surxondaryo	44,4
Sirdaryo	30,3
Toshkent	17,8
Farg'ona	31,4
Xorazm	37,2


Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Surxondaryo (44,4 %), shuningdek Jizzax (37,5 %) viloyatlariga to'g'ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududlarga Navoiy (9,4 %) va Toshkent (17,8 %) viloyatlarini keltirib o'tish mumkin.



### YAIM (YAQQ) tarkibidagi ulushi

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) (yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ)) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **18,2 %** ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun: 2023- yilda YAIM (YAQQ) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **20,1 %** ni tashkil qilgan.




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Boshqalar

# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ HO'JALIGIDA MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQARISH HAJMI

Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish va ovchilikda **1,5 trln so'm**, o'rmon xo'jaligida **4,1 trln so'm** va baliq xo'jaligida **1,0 trln so'm**, dehqonchilik mahsulotlari **64,4 trln so'm**, chorvachilik mahsulotlari **99,1 trln so'm** ishlab chiqarilgan.

Tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining yuqori ulushi chorvachilikka to'g'ri keladi - **60,6 foiz**. Dehqonchilikda – **39,4 foiz**, o'rmon xo'jaligida - **2,4 foiz**, qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish va ovchilikda - **1,0 foiz**, baliqchilik xo'jaligida **0,6 foizni** tashkil etdi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HAJMI



	Hajmi, mlrd.so‘m	O‘sish sur’ati, % da
--	---------------------	----------------------------

**O‘zbekiston  
Respublikasi** **170 297,3** **103,8**

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi** **4 793,3** **104,0**

*viloyatlar:*

**Andijon** **17 227,0** **103,0**

**Buxoro** **15 102,2** **103,6**

**Jizzax** **10 104,5** **103,4**

**Qashqadaryo** **16 755,8** **103,7**

**Navoiy** **7 882,2** **103,6**

**Namangan** **11 936,5** **103,4**

**Samarqand** **18 292,4** **104,2**

**Surxondaryo** **15 980,0** **103,7**

**Sirdaryo** **5 654,3** **103,7**

**Toshkent** **17 214,1** **104,1**

**Farg‘ona** **18 095,3** **104,9**

**Xorazm** **11 259,7** **104,3**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)-larining eng yuqori hajmi Samarqand (**18 292,4** mlrd. so‘m), Farg‘ona (**18 095,3** mlrd. so‘m) va Andijon (**17 227,0** mlrd. so‘m) viloyatlarida qayd etilib, aksincha kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**4 793,3** mlrd. so‘m), Sirdaryo viloyati (**5 654,3** mlrd. so‘m) va Navoiy viloyatini (**7 882,2** mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida o‘sish sur’atlari**

Sezilarli darajadagi yuqori o‘sish sur’atlari Farg‘ona (**104,9 %**), Xorazm (**104,3 %**), Samarqand (**104,2 %**), Toshkent (**104,1 %**) viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**104,0 %**) qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o‘sish sur’atlari Andijon (**103,0 %**), Jizzax (**103,4 %**), Namangan (**103,4 %**), Buxoro (**103,6 %**) va Navoiy (**103,6 %**) viloyatlarida kuzatildi.



# QISHLOQ O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMLARI DINAMIKASI


2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **170,3 trln so'mni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,8 foizga** o'sish ta'minlandi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning AQSh dollaridagi ekvivalenti **13,6 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,8 trln so'mlik** (**1,3 mlrd doll**) ko'p mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi jon boshiga **3,8 mln so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan (**3,7 mln so'm**) **2,1 foizga** oshdi.

## Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga o'sishi



## QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **163 479,6** mlrd. so'mni yoki 2023.-yilning mos davriga nisbatan **103,8 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **64 392,7** mlrd. so'mni (104,6 %) chorvachilik mahsulotlari – **99 086,9** mlrd. so'mni (**103,3 %**) tashkil qildi.



Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona (**17 671,7** mlrd. so'm), Samarqand (**17 661,8** mlrd. so'm) va Andijon (**16 607,5** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi (**4 387,3** mlrd. so'm), Sirdaryo viloyati (**5 177,9** mlrd. so'm) va Navoiy viloyati (**7 486,5** mlrd. so'm)ni keltirib o'tish mumkin.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (**104,9 %**), Xorazm (**104,3 %**), Samarqand (**104,2 %**) va Toshkent (**104,1 %**), viloyatlarida qayd etildi. Andijon (**103,0 %**), Jizzax (**103,2 %**) va Namangan (**103,4 %**) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI

**Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm**



**O'zbekiston Respublikasi  
2024- yil yanvar-iyun**



**64 392,7 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati **104,6 %**

**Qishloq xo'jaligi  
mahsulotlarining umumiy  
hajmdagi ulushi**



Yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmini hududlar kesimida tahliliga ko'ra qayd etish kerakki, eng yuqori hajmi Farg'on'a (**10 149,8 mlrd.so'm**), Andijon (**9 302,9 mlrd.so'm**), Surxondaryo (**7 891,5 mlrd.so'm**), Samarqand (**5 687,5 mlrd.so'm**), Buxoro (**5 476,8 mlrd.so'm**), va Toshkent (**5 424,9 mlrd.so'm**) viloyatlarida kuzatildi.

## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Samarqand (**12,0 %**), Qashqadaryo (**11,4 %**) va Toshkent (**11,0 %**) viloyatlariga to'g'ri keldi.


### Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, m/lrd. so'm

Samarqand	11 924,3
Qashqadaryo	11 284,3
Toshkent	10 915,7
Buxoro	9 336,4
Xorazm	7 928,3
Surxondaryo	7 797,7
Farg'on'a	7 521,9
Andijon	7 304,6
Jizzax	7 036,2
Namangan	6 309,8
Navoiy	5 591,9
Qoraqalpog'iston Resp.	3 126,0
Sirdaryo	3 009,8

O'zbekiston Respublikasi  
2024- yil yanvar-iyun



*Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmdagi ulushi*



Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimidagi tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Andijon (**104,7 %**), Qashqadaryo (**104,1 %**), Namangan (**104,1 %**) viloyatlarida qayd etildi.

# 2024-yil birinchi yarim yilligida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi

DON

SABZAVOT

KARTOSHKA


**5 802 ming tn 106,6%**



**3 400 ming tn 103,1%**



**1 704 ming tn 102%**




MEVA

POLIZ

UZUM

**1 072 ming tn 105,1%**




**260 ming tn 107%**



**52 ming tn 105,7%**



Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi  
(yanvar-iyun, ming tn)




# 2024 yil yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq hajmlari dinamikasi

2024-yilning 1-yarim yilida **1,3 mln tonna** go'sht yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **3,4 %ga** oshgan. Hududlar bo'yicha go'sht yetishtirish hajmi Toshkent viloyatida **153,3 ming tonna**, Qashqadaryo viloyatida **146,5 ming tonna**, Samarqand viloyatida **145,1 ming tonna**, Buxoro viloyatida **134 ming tonna**, Xorazm viloyatida **97,2 ming tonnani** tashkil etdi.

GO'SHT	SUT	TUXUM	BALIQ
<b>1 310 ming tn</b> <b>103,4%</b>	<b>5 423 ming tn</b> <b>102,6%</b>	<b>3 717 ming tn</b> <b>104,1%</b>	<b>48,6 ming tn</b> <b>104,6%</b>



**Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi**  
(yanvar-iyun, ming tonna, mln dona)



# 2024-yil 1-iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	2023-yil 1-iyul	2024- yil 1-iyul	o'sish sur'ati, %
--	--------------------	---------------------	-------------------------

 Yirik shoxli qoramollar  
mln bosh

13,5	13,7	2,0%
------	------	------

 Sigirlar  
mln bosh

4,8	4,9	1,9%
-----	-----	------

 Qo'y va echkilar  
mln bosh


23,4	24,0	2,3%
------	------	------

 Parrandalar  
mln bosh

94,2	99,3	5,4%
------	------	------

2024-yilning 1-iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni **13 777,8 ming boshga** yetdi, (2023-yilning mos davriga nisbatan **2,0 %** ga ko'p), sigirlar **4 874,3 ming bosh** (**1,9 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **23 980,1 ming bosh** (**2,3 %** ga ko'p), parrandalar **99 291,8 ming boshga** (**5,4 %** ga ko'p) yetdi. Eng ko'p yirik shoxli qoramollar soni Qashqadaryoda (**1718,9 ming bosh**), Samarqandda (**1650,8 ming bosh**), Buxoroda (**1341,7 ming bosh**) qayd etilgan. Chorva hayvonlari va parrandalarning **91,0 foizi** dehqon xo'jaliklari toifasi, **7,1 foizi** fermer xo'jaliklari, **1,9 foizi** qishloq xo'jaligi korxonalari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

## Chorva xayvonlari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %




■ Fermer xo'jaliklari ■ Dehqon xo'jaliklari ■ Qishloq xo'jaligi korxonalari

# 2024-YANVAR-IYUN OYLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ-OVQAT SANOATI SOHALARIDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA



Joriy yilning **1-yarim yilligida** qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **15,1 trln so'mni**, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi ulishi **6,6 foizni** tashkil etdi.


## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR HAJMI HAJMI VA TARKIBI, MLRD SO'M/%





Joriy yilning 1-yarim yilligida qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi **9,2 trln so'mni**, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulishi **5,8 foizni** tashkil etdi.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN XORIJIY INVESTITSIYA VAKREDITLAR TARKIBI, %



# 2024-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rirlari



Joriy yil yanvar-iyun oylarida jami **1,6 milliondan** ortiq (rejaga nisbatan **112,8%**) ish o'rirlari yaratilib, aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Jumladan, klasterlarda **12,4 ming**, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida **194,4 ming**, takroriy ekinga yer ajratish hisobiga **45,3 ming**, tomorqada **328,9 ming**, pillachilikda **979,1 ming** hamda suv va o'rmon xo'jaliklarida **2,9 ming** nafar fuqarolar band qilindi. **2024-yil yanvar-iyun oylarida** hududlar bo'yicha yaratilgan ish o'rirlarining eng yuqori hajmi **Qashqadaryo (374,6 ming ta)**, **Andijon (225,1 ming ta)**, **Surxondaryo (199,0 ming ta)**, **Farg'on'a (167,7 ming ta)**, **Buxoro (126,3 ming ta)** viloyatlarida qayd etildi.

